

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.71:005.35

ERGASHEV OLIM KENJAYEVICH

**KORPORATIV BOSHQARUV TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH (TIJORAT BANKLARI MISOLIDA)**

08.00.13 – “Menejment”

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Allayarov Shamsiddin Amanullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent shahri – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI.....	11
§ 1.1. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni tashkil qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	11
§ 1.2. Korporativ boshqaruvning konsepsiyalari va zamonaviy tamoyillari	21
§ 1.3. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillaridan foydalanish bo'yicha ilg'or xorij tajriba	34
I bob bo'yicha xulosa.....	38
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TAHLILI.....	41
§ 2.1. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillaridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	41
§ 2.2. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti tahlili...	47
§ 2.3. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish amaliyoti	56
II bob bo'yicha xulosa.....	70
III BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	72
§ 3.1. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.....	72
§ 3.2. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari	83
§ 3.3. Banklarda korporativ boshqaruvni modellashtirishni takomillashtirish yo'llari	96
III bob bo'yicha xulosa.....	104
XULOSA.....	107
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	114

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bank faoliyatida korporativ ma'lumotlarni oshkor qilish standartlaridan foydalanish tijorat bank sektorida raqobatbardoshlikni ta'minlashning zaruriy shartidir. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlarda korporativ boshqaruv standartlaridan foydalanish samaradorligini ta'minlash orqali regulyativ kapitalning yetarliligini ta'minlash, aktivlarning riskliligi va daromadliligi o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Germaniyaning Deutsche Bankida regulyativ kapitalning miqdori 2020-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, regulyativ kapitalning miqdori 2023 yilda 2017 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. AQSHning Bank of America bankida regulyativ kapitalning majburiyatlarga nisbatan darajasi 2017-2023 yillarda nisbatan yuqori bo'lgani holda, 2021-2023 yillarda esa, oshish tendensiyasiga ega bo'lgan¹.

Jahonda korporativ boshqaruv tamoyillarini tijorat banklari amaliyotiga to'liq joriy qilishni ta'minlash, korporativ boshqaruv standartlaridan foydalanish samaradorligini ta'minlash yo'li bilan tijorat banklari regulyativ kapitalning yetarliligini ta'minlash, aktivlarning riskliligi va daromadliligi o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlashga erishish, banklarning depozit bazasining yetarliligini ta'minlash, regulyativ kapitalning bank passivlarining umumiy hajmidagi salmog'ining barqarorligiga erishish, mamlakatning bank majburiyatlarini kuchaytirish va mahalliy banklarning ustuvorliklarini mustahkamlash, banklarning majburiyatlari sof yoshini diversifikatsiyalashni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilgan. Biroq, jahon moliya bozorlaridagi global trendlarning tijorat banklari passivlarining barqarorligiga ta'siri, passivlar bilan bog'liq bo'lgan risklarni baholash va boshqarish masalalarini kompleks va tizimli tarzda o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish

¹ Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. Concolidated Statement of income. www.db.com (Deutsche Bank); Concolidated Statement of income. Bank of America. Annual report 2023 (<https://investor.bankofamerica.com/annual-reports-and-proxy-statements>).

zarurligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida kapital to'planishi, bitimlarga qo'shimcha ravishda banklarning qimmatli qog'ozlar operatsiyalarida inqilob qilish, resurs bazasini rivojlantirish, davlat banklarini qayta qurish va tijorat banklarining majburiyatlarini muvaffaqiyatli hisobdan chiqarish. «Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning asosiy vazifalari hisoblanadi»². Unda ushbu vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun tijorat banklarida korporativ ma'lumotlarni oshkor qilish standartlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi aniqlangan.

2022 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida» gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

² Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalasining nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar – G.Gracheva, G.Gazin, P.Andryushenko, G.Grekova, S.Kuznetsova, A.Kilyakov, S.Mogilevskiy, V.Makovkina, K.Hopt, A.Alchiyan, S.Vudvard, J.Songer va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan³.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.Xamidulin, Sh.Ibodullayev, U.Ganiyeva, S.Elmirzayev, A.Abdullayev, B.Berdiyarov va boshqalarning ilmiy ishlarida banklarda korporativ boshqaruv masalasining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilingan⁴.

Biroq, o‘zbekistonlik olimlar tomonidan tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillaridan foydalanish samaradorligini ta’minlash masalasi mustaqil dissertatsion tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilinmagan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida korporativ boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari qo‘yidagilardan iborat:

tijorat banklarida korporativ boshqaruvni tashkil qilishning ilmiy va

³ Грачева М. Корпоративное управление//Управление компанией, 2004. – № 1.– С. 42-49.; Газин Г. Корпоративное управление в России : реальное конкурентное преимущество//Вестник McKinsey. – 2003. – №1 (3). – С. 7-19.; Андрющенко П. Н. Корпоративное управление и стоимость компаний//Экономика, предпринимательство и право, 2011. № 4. С. 13-20.; Грекова Г. И. Корпоративное управление: концепции и модели//Вестник института экономики и управления НОБГУ. – 2010. – № 1. – С. 13-18.; Кузнецова С. Н. Модели корпоративного управления //Иннов : электронный научный журнал, 2009. – № 1. – С.17-22.; Килияков А. Корпоративное управление как фактор привлечения и защиты инвестиций//Рынок ценных бумаг, 2003. – №4. – С. 50-53.; Могилевский, С. Д. Органы управления хозяйственными обществами. Правовой аспект. – М. : Дело, 2001. – -360 с.; Маковкина, В. А. Организация взаимодействия со стейкхолдерами как фактор повышения эффективности корпоративного управления//Вестник университета, 2016. – № 7-8. – С. 235-239.; Hopt K. The German Two-Tier Board - A German View on Corporate Governance, in: Comparative Corporate Governance, ed., 1997. - Hopt/Wymeersch, Berlin/New York.; Alchian, A., Woodward, S. Reflections on the Theory of the Firm//Journal of Institutional and Theoretical Economics, 1987.-143: 110 - 136.; Conger J., Lawler E., Finegold D. Corporate Boards: New Strategies for Adding Value at the Top, San Francisco: Jossey-Bass, 2001. – 217p.

⁴ Xamidulin M.B. – Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T.: Akademiya, 2007. -224 b.; Ibodullayev Sh.T. Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta’minlash yo‘llari. I.f.bf.d.diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 56 b.; Ganiyeva U.A. Banklarda samarali korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish zarurati//Boshqaruv va etika qoidalari, 2024. - №5. – B. 138-142.; Elmirezayev S.E. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini samarali tashkil etish masalalari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – 160 b.; Abdullayev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 21.; Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidlili va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73b.